



GUARANTEES OF HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS IN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Reimbaeva Iroda Makhmut qizi

2nd year student of the Faculty of Law, Berdoq Karakalpak State University,

Jurisprudence

e-mail: reimbaevairoda64@gmail.com

Abstract: *This article discusses the role of human rights and freedoms in our society, their essence, and the protection and guarantees of human rights in a democratic state. The article highlights the guarantees of human rights in national legislation, constitutional law, and ongoing reforms in international law. In addition, the Constitution of the Republic of Uzbekistan pays special attention to human rights and reforms in these areas.*

Keywords: *human rights, freedoms, civil society, constitution, democratic society, reforms, legislative norms.*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI

Reimbaeva Iroda Maxmut qizi

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti yuridika fakulteti yurisprudensiya

yo'nalishi 2-kurs talabasi

e-mail: reimbaevairoda64@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson huquqlari va erkinlarining jamiyatimizdagi o'rni, mazmun mohiyati, demokratik davlatda inson huquqlarining muhofazasi va ularning kafolatlanishi haqida bayon etiladi. Maqolada milliy qonunchilikda inson huquqlarining kafolatlari, konstitutsiyaviy huquq va xalqaro huquqda amalga oshirilayotgan islohatlar haqida yoritib beriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyada inson huquqlariga bo'lgan e'tibor va shu sohalaridagi islohatlarga alohida e'tibor qaratilgan.*



Kalit soʻzlar: inson huquqlari, erkinliklari, fuqarolik jamiyat, konstitutsiya, demokratik jamiyat, islohatlar, qonunchilik normalari.

ГАРАНТИИ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА В КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение прав и свобод человека в нашем обществе, защита и гарантии прав человека в демократическом государстве. В статье освещаются гарантии прав человека в национальном законодательстве, конституционное право и проводимые реформы в международном праве. Кроме того, в Конституции Республики Узбекистан особое внимание уделяется правам человека и реформам в этих областях.

Ключевые слова: права человека, свободы, гражданское общество, конституция, демократическое общество, реформы, законодательные нормы.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan yillaridan boshlab avvalombor inson huquqlariga boʻlgan eʼtiborni kuchaytirish va xalqimiz ravnaqi uchun tinmay harakat qilishni maqsad qildi. Chunki, demokratik huquqiy davlat qurishning asosida insonning huquqlari va erkinlarining kafolati turadi.

Shuni taʼkidlab oʻtish kerak, Oʻzbekistonda inson huquqlari va erkinliklari uchun amalga oshirilgan harakatlar uning oʻz konstitutsiyasida namoyon boʻldi. Konstitutsiyamizda eng yuqori qadriyat sifatida davlat va ijtimoiy tizimni emas, inson huquqlari va ularning manfaatlarini kafolatlab berdi. Konstitutsiyaga koʻra, inson huquqlari va erkinliklari daxlsiz hamda ajralmasdir. Ular tugʻilganidan boshlab har bir shaxsga tegishli boʻlib, davlat tomonidan tan olinadi va himoya qilinadi¹. Shuning uchun istiqbol yillaridagi eng oliy yutuqlardan biri sifatida shaxs erkinligi, inson huquqlarining kafolati, erkin mehnat va kasb tanlash, taʼlim olish va boshqa huquqlarining qonun bilan

¹ Konstitutsiyaviy huquq [Matn] : darslik / Mualliflar jamoasi/-T.: TDYU nashriyoti, 2024/-800 b.



himoya qilinganligi bo'ldi. Shu orqali yurtimizda yashovchi fuqarolar barcha sohalarda, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy huquqiy munosabatlarda bir-birlari bilan teng huquqqa ega bo'ldilar.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “Inson – jamiyat – davlat” tamoyilining mustahkamlanishi mamlakatimizda inson manfaatleri ustuvor ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Konstitutsiyamizning II bo'limi “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan bo'lib, 19-moddasida O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi deb belgilangan. Shu o'rinda aytish kerakki, “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan mazkur bo'lim 7 bobdan iborat bo'lib, unda Umumiy qoidalar, Fuqarolik, Shaxsiy huquq va erkinliklar, Siyosiy huquqlar, Iqtisodiy va Ijtimoiy huquqlar, Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari va Fuqarolarning burchlarini o'z ichiga olgan².

Bundan tashqari konstitutsiyamizning 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, unga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi deb qat'iy belgilab qo'yilgan. Shuni aytish lozimki, konstitutsiyamizdagi barcha belgilangan huquqiy normalar xalqaro huquqdagi umume'tirof etilgan prinsiplari va umumjahon deklaratsiyasi va paktlariga to'la asoslanganligini ko'rishimiz mumkin.

Davlatimizda barcha fuqarolarning tengdek huquqqa ega bo'lishi ham xalqaro huquq normalariga to'liq mos keladi. Shuning dalili sifatida 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiya bilan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 1-moddasida “Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin, bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak”³ deb

² O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023

³ 1948-yil 10-dekabr Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi



aytilgan. Bundan tashqari xalqaro miqyosdagi qabul qilingan “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro Pakt”, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro Pakt va fakultativ Bayonnoma” shular qatoridadir.

Konstitutsiyada huquq va erkinliklarni himoya qilishning aniq mexanizmlari belgilangan. Inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari — bu fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilgan taqdirda ularni tiklash, himoya qilish va adolatni ta’minlashga qaratilgan huquqiy vositalar va institutlar tizimidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ushbu mexanizmlarning huquqiy asosini belgilab beradi. Jumladan, sud hokimiyatining mustaqilligi prokuratura organlari nazorati, advokatura instituti, inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman) faoliyati, konstitutsiyaviy sud nazorati shular qatorida. Konstitutsiyamizda ham har bir shaxs o‘z huquqlari buzilgan taqdirda sudga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi va sud qarorlari majburiy kuchga ega bo‘lib, davlat tomonidan ijrosi ta’minlanishi belgilab qo‘yilgan.

Yurtimizda inson huquqlari va erkinliklarining kafolati mukammal mexanizm hisoblanadi. Davlatimizning mustaqillikka erishgan dastlab yillaridan boshlab, hozirgi kungacha inson huquqlari va erkinliklarining himoya qilinishi uchun birqancha qonunosti hujjatlar, qaror va farmonlar qabul qilindi. Ayniqsa, inson huquqlarini ta’minlash borasida 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining” O‘zbekiston parlamenti tomonidan tasdiqlanganligi istiqlolning ilk yillarida qabul qilingan muhim xalqaro huquqiy hujjat bo‘ldi.

Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning har xil vositalari yaratish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, aholining inson huquqlari bo‘yicha madaniyatini oshirish maqsadida BMTning Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo‘llab-quvvatlash dasturi asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktyabrdagi Farmoni bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi



tuzildi⁴. Farmonda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning maqsad va asosiy vazifalari aniq belgilab qo'yildi. Bu esa O'zbekistonda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishining yana bir bor yorqin dalilidir.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi inson huquqlari sohasidagi davlat boshqaruvi organlari muvofiqlashtiradi, inson huquqlari sohasida amalga oshiriladigan ishlarning milliy rejasini ishlab chiqadi. Bundan tashqari, mazkur markaz davlat xizmatchilari uchun esa inson huquqlari muhofazasi sohasida axborot bazasini yaratadi. Shu o'rinda milliy markazning asosiy maqsadi Inson huquqlari sohasidagi Milliy faoliyat dasturini, huquq va erkinliklarni himoya etishning ko'p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishdan iborat.

Shu o'rinda, Milliy markazning xalqaro hamkorligiga ham to'xtalib o'tish joiz. Xususan, BMTning O'zbekistondagi Taraqqiyot Dasturi, Xalqaro mehnat tashkiloti, O'zbekistondagi Evropa Ittifoqi delegatsiyasi, YUNESKO, YUNISEF, Xorijiy mamlakatlarning mamlakatimizdagi elchixonalari, qator xalqaro jamg'armalarning vakolatxonalari bilan samarali hamkorlik o'rnatilgan. Xalqaro sheriklar bilan hamkorlikda respublikamizda inson huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlash, himoya qilish va rag'batlantirishga yo'naltirilgan turli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Inson huquqlari va erkinliklarini yanada mustahkamlash uchun birqancha chora tadbirlar amalga oshirildi va shular qatorida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 24-aprelda bo'lib o'tgan sakkizinchi sessiyasida «Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi⁵. Shu kunga qadar ushbu hujjat Ombudsman vazifalari va vakolatlarini kengaytirish zaruriyati nuqtayi nazaridan takomillashtirilib, 2017-yilda yangi tahrirda qabul qilindi. Asosan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) — mansabdor shaxs

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktabrdagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida"gi farmoni

⁵ "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi 24.04.1997 yildagi 392-1-sonli qonuni



bo‘lib, unga O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari to‘g‘risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishining samaradorligi ustidan parlament nazoratini ta‘minlash vakolatlari berilgan.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) — bu O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil davlat instituti hisoblanadi. Ombudsmanning asosiy vazifalaridan biri O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hamda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning o‘z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzayotgan tashkilotlar yoki mansabdor shaxslarning harakatlari yoxud harakatsizligi ustidan bergan shikoyatlarini ko‘rib chiqadi va u o‘z tekshiruvini o‘tkazish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e‘tirof etilgan bo‘lib, bu tamoyil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan. Konstitutsiyaga ko‘ra, har bir shaxs yashash, erkinlik, sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, daxlsizlik, tenglik hamda adolatli sud muhokamasidan foydalanish huquqiga ega. Lekin bularning real ta‘minlanishi va buzilishining oldini olish uchun samarali huquqiy mexanizmlar zarur. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Konstitutsiyaviy kafolatlarni amalda himoya qiluvchi muhim huquqiy vosita hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi inson huquq va erkinliklariga tajovuz qiluvchi har qanday qilmishlarni jinoyat deb e‘tirof etadi va ular uchun jazo choralarini belgilaydi. Bu esa, bir tomondan, huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, buzilgan huquqlarni tiklash va aybdorlarni javobgarlikka tortish orqali adolatni qaror toptiradi. Jinoyat-huquqiy normalar orqali davlat fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i,



erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qiladi hamda har qanday noqonuniy tajovuzga nisbatan murosasiz munosabatni belgilaydi.

Ayni paytda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan inson huquqlarini muhofaza qiluvchi organlar, tashkilotlar va milliy institutlar o'z vazifalarni to'laqonli bajarish yo'lida xizmat qilib kelmoqda. Ularning harakati va izlanishlari orqali insonlarning huquqlari va erkinliklari himoya qilinmoqda. Shu asosda qonunchilikda ham inson huquqlarining muhofazasi uchun boshqada qonunlar tadbiq etilmoqda. Jumladan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilingan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonning demokratik o'zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish birlamchi vazifalardan biri sanaladi. Bu borada milliy qonunchilik normalari va konstitutsiyamizning o'rni alohida. Konstitutsiyaning barcha sohalarda avvalambor inson huquqlarini oliy qadiryat sifatida mustahkamlab qo'yilgan. Amalga oshirilayotgan barcha islohatlar ham inson manfaati yo'lida xizmat qilishi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar. Ushbu normadan maqsad fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktabrdagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to‘g‘risida”gi farmoni
4. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi 24.04.1997 yildagi 392-1-sonli qonuni
5. Konstitutsiyaviy huquq [Matn] : darslik / Mualliflar jamoasi/-T.: TDYU nashriyoti, 2024/-800 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
7. lex.uz
8. <https://constitution.uz/>
9. <https://ombudsman.uz/>